

UNABI NAVLARIDA HAR BIR DARAXTNING MEVALARINI VAZN KO'RSATKICHLARIGA EKOLOGIK MUHITNING TA'SIRI

Ostonoqulov Toshtemir Yeshimovich¹

Qarshi davlat universiteti

Agrokimyo va ekologiya kafedrası professori

Raimova Dilnoza Raimovna¹

Qarshi davlat universiteti

Agrokimyo va ekologiya kafedrası o'qituvchisi.

Nortoijev Bobosher Sheraliyevich²

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

Annotatsiya ilmiy maqolada Qashqadaryo vohasi sharoitida unabi plantatsiyalarini tashkil etish va yetishtirish va yetishtirilgan mevalarni vazn ko'rsatkichlariga ekologik muhitning ta'siri o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Tajribalar davomida unabining 5-xil navi, ta-yan-sizo, u-sin-xun va xitoydan yaqinda introduksiya qilingan mayabaizao, jixinzao, zanhuangdazao navlarini mevalarini vazn ko'rsatkichlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlari: *Unabi, nav, meva, vazn, muddat, sharoit, faza, kurtak, gullash, vegetatsiya, gulkurtak.*

Mavzusining dolzarbligi. O'simliklarning hududiy geografik sharoiti o'zgarganda ularning o'sishi va rivojlanish jarayonlarida bir qancha morfologik belgilarini o'zgarishlari kuzatiladi. O'simliklarni o'sishi va rivojlanishini, fenologik kuzatuvlar davomida adaptiv holatini baholashda, ma'lum bir muddatda ulardagi o'zgarishlarni taqqoslash orqali, ularning o'sish va rivojlanishini davomiyligini aniqlash mumkin bo'ladi. Ayrim kam meva beradigan va o'rtacha hosilli mevali daraxtlar, yengil tipdagi tuproq sharoitlarida mevalarining pishishi va vegetatsiya davri bir oz qisqa bo'ladi.

Tajribalarda o'rganilgan unabi navlarda fenologik fazalarning o'tish vaqti diyarli bir xil bo'lib, dastlabki vegetatsiya davrida o'simliklarni o'sishi va rivojlanishiga ekologik muhitning ta'siriga bog'liqligi kuzatildi. Tadqiqotlar davomida yorug'lik va issiqlik sharoitlari yaxshi bo'lgan quruq ekologik sharoitida ko'p sonli generativ kurtaklar hosil bo'lib, bu meva va urug'larning keyingi hosildorligiga ta'sir ko'rsatdi. Unabi o'simliklarda jadal gullashi, birinchi gullashdan 1-2 yil o'tgach sodir bo'ladi. O'simliklarni birinchi yili gullashi, qoida tariqasida, zaif yoki o'rta tabiatga ega bo'lib, odatda meva tugish bilan yakunlandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Unabi navlarida har bir daraxtning mevalarni vazn ko'rsatkichlari (2021-2023 yy).

Unabi navlari	har bir daraxtning mevasi, kg	bitta meva, g	bitta urug', g	Pulpa hosili, %
Vegetativ qalamchalardan ko'paytirilgan unabi navlari (nazorat)				
Ta-yan-sizo	6,15-6,85	13,11-17,92	0,82-1,16 0,93±0,04	89-94
U-sin-xun	5,86-6,30	12,12-17,85	0,81-1,14 0,93±0,04	88-93
Mayabaizao	6,18-6,90	13,20-18,10	0,82-1,17 0,93±0,04	89-95
Jixinzao	6,20-7,10	13,30-18,12	0,82-1,17 0,93±0,04	90-95
Zanhuangdazao	6,20-7,20	13,35-18,15	0,82-1,16 0,93±0,04	90-96
Melkoplodniy payvandtagida yetishtirilgan unabi navlari				
Ta-yan-sizo	6,28-6,89	12,8-17,65	0,82-1,14 0,93±0,04	89-92
U-sin-xun	5,89-6,33	12,8-17,68	0,81-1,13 0,93±0,04	88-90
Mayabaizao	6,20-6,98	13,12-18,8	0,82-1,15 0,93±0,04	89-93
Jixinzao	6,22-7,16	13,25-18,10	0,82-1,15 0,93±0,04	90-94
Zanhuangdazao	6,25-7,26	13,30-18,12	0,82-1,15 0,93±0,04	90-95

Olib borilgan tadqiqotlarimizda unabi mevali o'simligining har bir daraxtning mevalarni

vazn ko'rsatkichlari vegetativ qalamchalardan ko'paytirilganda va melkoplodniy payvandtagida yetishtirilganda qanday ko'rsatkichga ega bo'lishi o'rganildi. Unabi mevali o'simligining Ta-yan-sizo navini vegetativ qalamchalardan ko'paytirilganda har bir daraxtning mevasi 6,15-6,85 gr oralig'ida bo'lib, bitta dona meva vazni 13,11-17,92 g va bitta urug' vazni 0,82-1,16 g ni tashkil etib, pulpasi hosili esa 89-94 % ko'rsatkichga ega bo'lishi tadqiqotlarimizda ko'zatildi. U-sin-xun navida esa har bir daraxtning mevasi 5,86-6,30 kg ko'rsatkichni ko'rsatib, bitta mevasining og'irligi 12,12-17,85 gr ni tashkil qildi va bitta urug'i 0,81-1,14 g, meva pulpa hosili 88-93 % ni tashkil qildi. Olib borilgan tadqiqotlarimizda unabining Mayabaizao navi vegetativ qalamchalardan ko'paytirilganda har bir daraxtning mevasi 6,18-6,90 g oralig'ida, o'simlikning bitta mevasi 13,20-18,10 g gacha, o'simlikning bitta urug'i 0,82-1,17 g og'irlikda bo'lib meva pulpasi hosili 89-95 % ni ko'rsatkanligi tadqiqotlarimiz davomida ko'zatildi. Unabining Jixinzao navida esa har bir ko'rsatkichlar oldingi navlardagiga nisbatan og'irligi yuqoriroq bo'lib, daraxtning mevasi 6,20-7,10 g ni ko'rsatdi. O'simlikning bitta mevasi 13,30-18,12 g gacha, o'simlikning bitta urug'i 0,82-1,17 g og'irlikda bo'lib meva pulpasi hosili 90-95 % ni ko'rsatkanligi aniqlandi. Unabi o'simliklarining navlarida olib borilayotgan tadqiqotlar bir biridan har bir daraxt mevasi og'irligi, bitta meva vazni, bitta urug' vazni va pulpa hosilini foiz ko'rsatkichlarini har xilligi bilan ajralib turadi. Unabining Zanhuangdazao navining ham vazn ko'rsatkichlari boshqa navlardagi vazn ko'rsatkichlariga nisbatan birmuncha yuqori bo'lib, har bir daraxtning mevasi 6,20-7,20 g ni ko'rsatdi. O'simlikning bitta mevasi 13,35-18,15 g gacha, o'simlikning bitta urug'i 0,82-1,16 g og'irlikda bo'lib meva pulpasi hosili 90-96 % ni ko'rsatkanligi tadqiqotlarimiz mobaynida aniqlandi.

Unabi navlarida har bir daraxtning mevalarni vazn ko'rsatkichlarini melkoplodniy payvandtagida yetishtirganimizda tajriba ko'rsatkichlari quydagicha bo'ldi; Unabining Ta-yan-sizo navida vazn ko'rsatkichlar har bir daraxtning mevasida 6,15-6,85 kg, bitta mevasi og'irligi 13,11-17,92 g ni, bitta urug' og'irligi 0,82-1,16 gr ni va pulpasi hosili 89-94 % ni tashkil etdi. Tadqiqot yillar davomida olib borilgan tajribalarimizda unabining U-sin-xun navi vazn ko'rsatkichlari Melkoplodniy payvandtagida yetishtirilganda boshqa

navlardagiga nisbatan pastroq ko'rsatkich ko'rsatdi. Mayabaizao navi melkoplodniy payvandtagida yetishtirilganda vazn ko'rsatkichlari har bir daraxtning mevasi 6,20-6,98 kg, bitta meva og'irligi 13,12-18,8 gr, va bitta urug' vazni 0,82-1,15 gr ni ko'rsatdi pulpa hosili 89-93 % ni tashkil qildi. Unabining Jixinzao navining vazn ko'rsatkichlari U-sinxun va Mayabaizao navlaridagi har bir daraxtning mevasi og'irligidagiga nisbatan og'ir 6,22-7,16 kg ni tashkil etdi. Jixinzao navining mevasining bitta donasi vazni 13,25-18,10 gr ni, bitta urug'i 0,82-1,15 gr og'irlikga ega ekanligi tadqiqotlarimiz davomida ko'zatildi pulpa hosili 90-94 % ni ko'rsatdi. Unabi mevali o'simligining Zanhuangdazao navida har bir daraxtning mevasi 6,25-7,26 kg, mevasining bitta donasi vazni 13,30-18,12 gr va bitta dona urug'ining og'irligi 0,82-1,15 gr ni tashkil etib pulpa hosili barcha navlardagilarga nisbatan foizi balandroq bo'lib 90-95 % ni ko'rsatdi.

Unabi o'simligining navlarini Vegetativ qalamchalardan ko'paytirganda va Melkoplodniy payvandtagida yetishtirilganda vazn ko'rsatkichlarini taqqoslaganda Jixinzao navi va Zanhuangdazao navlari yaxshi ko'rsatkichlarni ko'rsatganligi tadqiqotlarimiz davomida kuzatildi.

Xulosa Shuni ta'kidlash zarurki Qashqadaryo vohasi tuproq iqlim sharoitida unabi yetishtirishda navlar aro vazn ko'rsatkichlari tahlil etildi. Bunda asosan mevalarni vazni navlararo farqlanishi kuzatildi. Aytish joizki unabi mevalari nav hususiyatlariga va yetishtirish sharoitiga bog'liq ravishda bir biridan farqlanishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Алиев, Х.А. Перспективы интродукции субтропических культур в новые агроэкологические условия / Х.А. Алиев, М.Д. Мукайлов, Б.С. Гасанбеков // Проблемы развития АПК региона. - 2011. - №4(8). - С. 11-12.
2. Жученко, А.А. Селекция растений на устойчивость к действию абиотических и биотических стрессоров / А.А. Жученко // Научное обеспечение устойчивого развития сельскохозяйственного производства в засушливых зонах России: сб. матер. науч. сессии. - М., 2000. - Ч. II. - С. 5-18.
3. Загиров Н.Г., Ибрагимов Н.А., Мамерзаев Ш.С. Устойчивость субтропических культур к зимним повреждениям в Южном Дагестане // Сборник статей международной научно-практической конференции: «Основные проблемы, тенденции и перспективы устойчивого развития сельскохозяйственного производства». — Том 1. — Махачкала, 2006. — С. 228-229.
4. Пономаренко, Л.В. Биологические особенности и хозяйственная оценка китайского финика в Прикубанской зоне садоводства: автореф. дис. ... канд. биол. наук / Л.В. Пономаренко. - Краснодар, 2006. - 95 с.